

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
RESPUBLIKA MA‘NAVIYAT VA MA‘RIFAT MARKAZI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**“JADID MA‘RIFATPARVARLARINING
O‘ZBEK ADABIY TILI RIVOJIDAGI
O‘RNI”**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

2024-yil 29-may

Toshkent – 2024

Ushbu to‘plam 2024-yil 29-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi bilan hamkorlikda “Jadid ma‘rifatparvarlarining o‘zbek adabiy tili rivojida o‘rni” mavzusida o‘tkazgan respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan filologlar mutaxassislar, ona tili va adabiyot o‘qituvchilari, magistratura va bakalavriat talabalari foydalanishlari mumkin.

(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar)

Mas’ul muharrir:

Yorqinjon Odilov, filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati:

Nizomiddin Mahmudov, filologiya fanlari doktori, professor

Durdona Xudoyberganova, filologiya fanlari doktori, professor

Abduvahob Madvaliyev, filologiya fanlari nomzodi, professor

Berdak Yusufov, filologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Abdumannon Hasanov, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Dilrabo Andaniyazova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Aziza Axmedova, kichik ilmiy xodim

Muxlisa Saydaliyeva, kichik ilmiy xodim

Mirzohid Tursunov, kichik ilmiy xodim

Feruza Ravshanova, kichik ilmiy xodim

Dilnoza Ro‘zimatova, tayanch doktorant

To‘plab, nashrga tayyorlovchi:

Aziza Axmedova

Ushbu to‘plam O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

Mazkur to‘plam O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Ilmiy kengashining 2024-yil 20-maydagi 4-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

xususiyatlari ta'riflanadi. Gadoiy she'rining navbatdagi baytida esa go'zallik **shakl** ifodasida verballashuvini ko'ramiz:

*Kipriklaringni ko'rgali oshiq niyoz ila
Jonig'a tig'i novaku xanjar havas qilur.*

Kiprik bilan novak (kamon o'qi) va xanjar o'rtasidagi umumiy o'xshashliklar – *uzunlik, uchlilik* belgilari shoir tafakkurida assotsiatsiyalashadi, tashqi o'xshashlikdan tashqari novak va xanjar leksemalariga tegishli “keskir” semasi asosida voqelangan “jon olish” vazifasini ham shoir kiprikka yuklaydi. Baytdan “*oshiqlar kipriklaringni ko'rish uchun joniga tig' sanchilishiga ham rozi*” degan mazmun kelib chiqadi. Bunga kiprik va xanjardagi shakl va xususiyat o'xshashligi asos bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, mumtoz she'riyatdagi go'zallik ifodasida mubolag'aning o'ta kuchliligi va tasvirlarning bo'yoqdorligi ko'zga tashlanuvchi xususiyatdir. “Go'zallik” konseptini verballashtirishda ishtirok etadigan ko'chimlar, asosan, taktil sezgilar assotsiatsiyasiga asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Раҳматова М.М. Гўзаллик концептининг бадий матнларда воқеланиши ва унинг концептуал таҳлили. БДУ илмий ахбороти. – Бухоро, 2019. – №2 (74).
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдли. Э.Фозилов таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1983.
3. Сайфиддин Сайфуллоҳ. Девони Шайхзода Атойи. – Тошкент: Фан, 2008.
4. Юлдашев А.Г. Кўчма маъноли сўзларда когнитив механизмларнинг ўрни. “Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий-методик электрон журнали. – Тошкент, 2019. №3.
5. Девони Шайхзода Атойи. – Тошкент: Фан, 2008.
6. Лутфий. Девон. – Тошкент: Фафур Фулом, 2012.
7. Саккокий. Танланган асарлар. ЎзССР бадий адабиёт нашриёти. – Тошкент, 1958.
8. Гадойи. Девон. – Тошкент: Фафур Фулом, 1973.

*Manzura Shamsiyeva, filol. fan.
bo'yicha falsafa d-ri (PhD), dotsent. v.b.,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU*

KONSEPTOSFERA, MENTALITET VA OLAMNING KOGNITIV MANZARASI

Annotatsiya. *Maqola kognitiv tilshunoslikning o'rganish obyekti bo'lgan konseptosfera va unga yondosh hodisa mentalitet tushunchalari tavsifiga bag'ishlanadi. Unda ayni tushunchalar kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan tavsiflanadi.*

Kalit so'zlar: *kognitiv tilshunoslik, mentalitet, konseptosfera, milliy mentalitet, guruh mentaliteti, konsept.*

Kognitiv tilshunoslik doirasidagi ishlarda “mentalitet” atamasi ko'p qo'llanadi, biroq bu atamaning mazmuni hanuz etarlicha aniq belgilangan emas. Ushbu tushunchaning bir-biriga zid, turli-tuman izohlari mavjud. Mentalitet deganda fikrlar obrazi, aqlning psixologik xazinasi, fikrlash tarzi, xarakteri va

boshqalar tushuniladi. Bugungi kunda bu soʻzni qoʻllash urfga aylangan, uning asil tavsifiga qatʼiy amal qilinmaydi.

Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasining birinchi jildida ushbu atamaga quyidagicha taʼrif keltirilgan: “Mentalitet (lotincha: *mentalis* – aqliy) – ayrim kishi yoki ijtimoiy guruhga xos aqliy qobiliyat darajasi, maʼnaviy salohiyat. Jamiyat, millat yoki shaxsning Mentaliteti ularning oʻziga xos tarixiy anʼanalari, urf-odatlar, diniy eʼtiqodini ham qamrab oladi. Har bir millatning mentaliteti uning tarixi, yashab turgan shart-sharoiti, ijtimoiy faolligi va boshqa bir qancha omillar bilan bogʻlangan boʻladi. Masalan, oʻzbek millati mentalitetining shakllanish jarayoni deyarli uch yarim ming yillik tarixga ega. Oʻzbek xalqi insoniyat moddiy va maʼnaviy madaniyatini bebaho durdonalar bilan boyitgan. Uning mentaliteti, aqliy qobiliyati oʻtkirlashib borgan. Ammo 16–20-asrlar oraligʻida turli istibdod va mustamlakachilik zulmini boshidan kechirganligi tufayli milliy Mentalitetiga jiddiy putur etdi. Mustaqillik mafkurasi oldida oʻzbek xalqining haqiqiy Mentalitetini tiklash vazifasi turibdi” [ЎЗМЭ. 1-жилд. 2000].

OʻTILda “Mentalitet [*nem.* Mentalitat – *lot.* mens, mentis – aql, idrok] jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, madaniy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlardagi aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati (Jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti, ularning oʻziga xos anʼanalari, rasm-rusumlari, urf-odatlar, diniy eʼtiqod va irimlarini ham qamrab oladi)” tarzida taʼrif keltirilgan [ЎТНЛ, 2006: 580]

Kognitiv tilshunoslikda mentalitet va konseptosfera tushunchalarini farqlash lozim.

Mentalitet kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan voqelikni idrok etish va tushunishning oʻziga xos usuli boʻlib, muayyan shaxs, ijtimoiy yoki etnik guruh uchun xarakterli boʻlgan anglashning kognitiv stereotiplari majmuyi sifatida belgilash taklif etiladi.

Shaxs, guruh va xalq mentaliteti haqida toʻxtalish mumkin. Muayyan shaxs mentaliteti milliy, guruh mentaliteti, shuningdek, insonning shaxsiy rivojlanish omillari – uning individual maʼlumoti, madaniyati voqelik hodisalarini idrok qilish va talqin qilish tajribasi bilan taʼminlanadi. Bu voqelikni idrok qilish va tushunishning shaxsiy mental mexanizmlaridir.

Guruh mentaliteti – bu muayyan ijtimoiy, yosh, kasb, gender va hokazo guruhlari tomonidan voqelikni idrok qilish va tushunishning oʻziga xos xususiyatlaridir. Maʼlumki, voqelikning bir xil faktlari, bir xil hodisalar turli guruh kishilari tomonidan turlicha idrok etilishi mumkin. Erkaklar va ayollar, bolalar va kattalar, ijtimoiy soha vakillari va texniklar, boylar va kambagʻallar va hokazo. Bu kauzal atributsiya, yaʼni biror-bir voqea-hodisaning sabablarini qayd etishdagi kognitiv stereotiplar bilan bogʻliq. Guruh mentaliteti guruhdagi appersepsiya mexanizmlari, guruh ustanovkalari bilan chambarchas bogʻliqlikda shakllanadi.

Masalan, magʻlub komanda ishtirokchilari obyektiv omillar taʼsirini izohlash tendensiyasiga moyil boʻladilar / *maydonning yaxshi emasligi, hakamning adolatsizligi* va b. kuzatuvchilar esa bu holatni subyektiv omillar bilan

tushuntirishga moyil bo‘ladilar / *tezlik etishmadi, jonbozlik ko‘rsatishmadi, yaxshi harakat qilishmadi, o‘ynay olishmadi* va h. G‘oliblar esa odatda muvaffaqiyatini shaxsiy harakatlari bilan bog‘lashadi.

Bolalar, erkaklar, ayollar “mantig‘i” mavjud. Muayyan psixologik tur vakillari mentaliteti mavjud, masalan, optimist va pessimist, birinchisi “hali ancha bor” desa, pessimist “hech qancha qolmadi” deydi. Aytish mumkinki, mentalitet “avtomatlashgan” xarakterga ega, u deyarli ongsiz ishlaydi, shu sababli ko‘p hollarda “obyektiv” bo‘lmaydi. Agar inson obyektiv bo‘lishni xohlasa, u o‘z mentaliteti “ko‘rsatma”lari, o‘z ustanovkalari, appersepsiyalarini ongli ravishda bartaraf eta olishi kerak. Bunda shaxsiy, ham guruh, ham milliy mental stereotiplarni bartaraf etishi lozim bo‘ladi.

Milliy mentalitet – voqelikni idrok qilish va tushunishning milliy usuli bo‘lib, millatning kognitiv stereotiplari majmuyi bilan belgilanadi. Masalan, amerikalik boyib ketgan odam haqida shunday o‘ylaydi: “boy – demak aqlli”, o‘zbeklar esa “boy – omadi kelgan, pishiq”. “Yangi” tushunchasi ham amerikaliklarda “yaxshilangan, zo‘r” tarzida qabul qilinsa, o‘zbeklarda “sinalmagan, ishonib bo‘lmaydi” tarzida idrok etiladi.

Voqelikni idrok etish va tushunish – o‘xshash, biroq bir-birining o‘rnini bosa olmaydi. Idrok qilish – tushunishning birinchi bosqichi va asosiy shartidir. Turli millat vakillari mentaliteti turli millat kishilarini bir xil vaziyat yoki tushunchani turlicha idrok qilishga “majburlaydi”.

Milliy mentalitet ko‘pincha odamni idrok etish organlarini bir narsani ko‘rish va boshqasini sezmaslikka “undaydi”. Masalan, rus mentaliteti har doim Osiyo ayollarining itoatkorligini qayd etadi va o‘z faolligining oshib ketganligini sezmaydi, osiyoliklar esa birinchi navbatda rus ayollarining faolligi va hatto tajovuzkorligini o‘zlarining itoatkorligi va passivligini sezmasdan qayd etadilar. Yoki ruslar mehmonga borishda belgilangan vaqtdan biroz kechikib borishni uy egalariга hurmat deb hisoblasa, nemislar esa hurmatsizlik deb hisoblaydi. Yana bir misol: rus talabalari o‘qituvchining bitta narsani takroran tushuntirishini o‘quvchiga yordam berish istagi sifatida tushunishadi, finlar ko‘pincha bunday o‘qituvchi haqida “u bizni ahmoq deb biladi” deb o‘ylashadi [З.Д.Попова, И.А.Стернин, 2007: 42].

Mentalitet va konseptosfera tushunchalari chambarchas bog‘liq va fikrlash jarayonida o‘zaro ta’sir qiladi.

Konseptosfera – millatning bilim doirasi – muayyan darajada xalq mentalitetini aniqlab beradi (voqelikni idrok qilish va tushunish xususiyatlari): millat konseptosferasini shakllantiruvchi mental birliklar kognitiv stereotiplar – voqelik haqida mulohazalarni shakllantirish asosi hisoblanadi. Milliy mentalitet konseptlarning shakllanish va rivojlanish dinamikasini yo‘naltiradi, mavjud stereotiplar shakllanayotgan konseptlar mazmuniga ta’sir qiladi, voqea-hodisalarni kontsepsiyalarda qayd etilgan ba’zi baholarini belgilaydi.

Mentalitet va konseptosfera bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lishiga qaramay, bu ikki hodisa turli mohiyatni ifodalaydi, ularni tadqiq etish turli metod va yondashuvlarni talab qiladi.

Milliy mentalitet, avvalo, muayyan xalq vakillarining xarakteri, xatti-harakatlari, kommunikativ xulqida namoyon bo'ladi. Mentalitet iqtisodiy shart-sharoitlar, siyosiy o'zgarishlar, boshqa etnik guruhlar bilan aloqalar ta'sirida shakllanadi. Uni asosan etnomadaniy va etnopsixologik metod va usullar bilan tadqiq etish lozim, bu tilshunos va lingvokognitologlarning vazifasi hisoblanmaydi.

Konseptosfera – xalq va alohida shaxslarning fikrlash doirasi, kognitiv ongning informatsion bazasi. Konseptlar shakllanishining asosiy manbasi – shaxsning shaxsiy bilish faoliyati, xususan, uning kommunikativ faoliyatidir (muloqot, o'qish, ta'lim). Konseptosferani psixologik, madaniy va lingvokognitiv metod va usullar orqali tadqiq qilish mumkin.

Inson konseptosferasi olamning kognitiv manzarasi informatsion bazasi hisoblanadi. Uning tartiblashganligi, strukturligi va tizimlilikini ta'minlaydi, ko'p jihatdan idrok etilganlarni tushunishni ta'minlaydi, lekin olamning kognitiv manzarasini buzmaydi, bu mental birliklar tizimidan tashqari bilishning dinamik mexanizmlari, idrokning kognitiv stereotiplari va boshqalarni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – М., 2007. – 314 с.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. – Тошкент, 2000.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Тошкент, 2006. – 580 б.
4. Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. – М., 1996.

Nurbek Ahmadjonov,
filol. fan. bo'yicha falsafa d-ri (PhD),
Farg'ona davlat universiteti

NUTQIY AKTLAR VA ULARNING VUJUDGA KELISH TARIXI

Annotatsiya. Maqolada nutq akti nazariyasining alohida ta'limot sifatida dastlab qay tarzda shakllanganligi to'g'risida fikr yuritiladi va tahlillar beriladi.

Kalit so'zlar: lokutsiya, illokutsiya, perlokutsiya, lingvofalsafiy yonfadush, adresat.

XX asrning oxirlarida nutq akti nazariyasi lingvofalsafiy ta'limot sifatida vujudga keldi. Nutq akti tushunchasi avvalroq ham Humboldt, Sh. Balli, K.Byuller, E.Benvenist, M.Baxtin kabi olimlarning ta'limotlarida mavjud bo'lgan, biroq nutq akti nazariyasi to'liq bir ta'limot sifatida ingliz mantiqshunos olimi J.Ostin, amerikalik psixolog J.Searl va boshqalarning tadqiqotlarida yuzaga keldi. Oksford va Kembrij universitetlarida faoliyat ko'rsatgan mantiqshunis olimlar lisoniy faoliyatning ko'pvazifaviyligiga va uning insonning hayot kechirish shakli bilan o'zaro chambarchas bog'liq ekanligiga e'tibor qaratishdi. Til insonlarning so'zlash yoki yozish harakatlarini bajarishi bilan bogliq bo'lib, bu harakatlarning bajarilishi jarayonida gap asl ma'nosidan tashqari, tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish, va'da berish kabi mazmunni ifodalash imkoniyatini ham namoyon

Durdona Lutfullayeva. Tilshunoslikda assotsiativ verbal portret yaratish metodlari	111
Yorqinjon Odilov. Tillarning sotsiolingvistik tasnifi	116
Ma'murjon Saidxonov. Badiiy matnda ishora xulqining berilishi	123
Nilufar Axmedova. Psixolingvistik terminlarning leksikografik talqini.....	127
Shoxida Siddiqova. O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplarning muxtasar antropotsentrik tadqiqi	130
Zulfiya Marufova. Estetik baho antropotsentrik tadqiq obyekti sifatida	133
Manzura Shamsiyeva. Konseptosfera, mentalitet va olamning kognitiv manzarasi	136
Nurbek Axmadjonov. Nutqiy aktlar va ularning vujudga kelish tarixi	139
Muxlisaxon Saydaliyeva. Onomastik birliklarning etalonlik xususiyati	143
Feruza Ravshanova. Sotsiolingvistikaning fan sifatidagi maqomi va sotsiologiya bilan munosabati.....	146
Dilnoza Ro'zimatova. Ijtimoiy maqomning pragmalolingvistik tadqiqi	149
Latofat Mirzajonova. Sotsial semantikali nutqiy faoliyat fe'llari	155
Jamila Yunusova. Onomatoplarning poetik imkoniyatlari (Shavkat Rahmon she'rlari misolida).....	158
Dilafro'z Otaxanova. O'zbek xalq shevalarida arabizmlarning lingvokulturologik tadqiqi	161

JADID ADABIYOTI (NASR, NAZM, DRAMATURGIYA)

Suvon Meli. Yangi poetik til (Cho'lpon lirikasi misolida)	166
Rahmatulla Barakayev. O'zbek jadid bolalar adabiyotining ba'zi til xususiyatlari	168
Ulug'bek Hamdamov. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida jadidchilik g'oyalarining o'ziga xos ifodasi	175
Muxtor Xudoyqulov. Jadidlar matbuotida hajviy publitsistika (ijtimoiy mavzular va shakliy-ijodiy izlanishlar)	182
Damin To'rayev, Obid Karimov. Jadidchilik g'oyalarining adabiyotga ta'siri	188
Sanobar To'laganova. Jadid nasrida estetik ideal talqini	192
Marhabo Qo'chqorova. Munavvarqori Abdurashidxonovning so'z qo'llash mahorati (publitsistik ijodi misolida).....	197
Manzura Otajonova. Cho'lponning tasvirlash mahorati.....	202
Oybek Dadajonov. O'zbek jadid dramalarida hayot va qahramon muammosi ..	207
Nodira Xolikova. Fitratning "Hind ixtilolchilari" dramasida Dilnavoz obrazi talqini	210
Abdilhakimov Dilruxjon. Turkiston jadidchiligining otasi.....	214

“JADID MA’RIFATPARVARLARINING O‘ZBEK ADABIY TILI RIVOJIDAGI O‘RNI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

2024-yil 29-may

Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Adadi 100 nusxa. Hajmi 28,7 b/t. Bichimi 60x84 ¹/₈
«Times New Roman» garniturasida. ofset usulida bosildi.
OOO “BOOKMANY PRINT” bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22 mavze, 17-b.